

ARBITRAJ SUD HUJJATLARINI TAN OLISH VA IJRO ETISH

Xushnayeva Mohinur Qahramon qizi

*Toshkent davlat yuridik universiteti “Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik”  
fakulteti talabasi*

[Xushnayevamohinur@gmail.com](mailto:Xushnayevamohinur@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada chet el elementi bilan murakkablashgan xususiy munosabatlarda vujudga kelgan nizolarni hal etish tartibi, chet el arbitraj sudlarining hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish va arbitraj sud hujjarlarini tan olish va ijro etishning o'zaro farqli masalalari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *sud, arbitraj sud, arbitraj sudining hal qiluv qarori, ijro varaqa.*

**Аннотация:** *В данной статье рассмотрены порядок разрешения споров, возникающих в сложных частноправовых отношениях с иностранным элементом, признания и приведения в исполнение решений иностранных третейских судов, а также различные вопросы признания и приведения в исполнение документов третейского суда.*

**Ключевые слова:** *суд, третейский суд, решение третейского суда, исполнительный лист.*

**Annotation:** *This article describes the procedure for resolving disputes arising in complicated private relations with a foreign element, the recognition and enforcement of decisions of foreign arbitration courts, and the different issues of recognition and enforcement of arbitration court documents.*

**Key words:** *court, arbitration court, decision of arbitration court, executive order.*

Sud (slavyanacha sud – ish) – odil sudlovni amalga oshiruvchi davlat organi; muayyan davlatning qonunlariga asosan protsessual tartibda jinoiy, fuqarolik, ma'muriy va boshqa toifadagi ishlarni ko'rib chiqadi va hal qiladi. Ayrim shaxslar o'rtasida, ular bilan davlat idoralari, korxonalar, muassasa, tashkilot ma'muriyati, jamoat birlashmalari o'rtasida mulkiy va nomulkiy nizolarni, qonunbuzarliklarga doir ishlarni ko'rib chiqib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar, tashkilot huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qiladi. Sud boshqa davlat organlaridan, jamoat birlashmalari va har qanday shaxsdan mustakil va xolisona faoliyat yuritishi, barcha ishlarni faqat qonunga bo'ysunib ko'rib chiqishi va hal etishi lozim.

Sud tizimi O'zbekiston hududida davlatchilikka xos ko'p asrlik tarixga ega. Sud faoliyatini qadimdan xalq madaniyati, an'analari va ma'naviy negiziga asoslanib, obro'e'tiborli, katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan kishilar amalga oshirishgan. Ular chiqargan qarorlar har qanday shubhadan xoli va barcha uchun majburiy hisoblangan. O'zbekistonda qariyb 13 asr davomida shariat qonunlariga amal qilgan qozilik sudi hamda xalq urf-odatlarini va an'analari suyanib qaror qabul qilgan biylar sudi mavjud bo'lgan. Chor rossiyasi O'rta Osiyoni zabt etganidan so'ng Rossiya qonunlariga amal qiluvchi Sudlarni tuzdi. 1917-yil Oktyabr to'ntarishidan so'ng "xalq" sudlari va tribunallar ta'sis etildi. Sud adolatga emas,

vahshiyona qatag'on, shafqatsiz jazolashga xizmat qildi. Sud batamom partiya va sovet ijroiya organlariga karam edi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab sud tizimini takomillashtirish va sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash yo'lida ko'plab islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil ish yuritishi va Sud faoliyatining boshqa asosiy prinsiplari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida e'tirof etildi (106– 116moddalar), yangi sud tizini barpo qilindi, "Sudlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni (1993-yil 2 sentyabr, yangi tahriri 2000-yil 14 dekabr) va bir qator qonunlar amalga kiritildi. Sud tomonidan chiqarilgan hujjatlar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy hisoblanadi hamda O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart.

Odil sudlovni xalqaro miqyosda amalga oshirish alohida e'tiborga loyiqdir. O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan oq jahon hamjamiyatiga keng integratsiyalashuvga yo'naltirilganligidan kelib chiqib, mamlakatimizdagi xorijiy sub'yektlarni va xorijdagi mahalliy sub'yektlarni sud orqali himoya qilish masalalari mamlakatimizda dastlabgi o'rinlarga qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida tashqi iqtisodiy faoliyatni huquqiy tartibga solish sohasida milliy qonunchilikda chuqur o'zgarishlarni amalga oshirdi. Mahalliy xo'jalik yurituvchi subyektlarga tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish huquqini berish, qo'shma korxonalar tashkil etish, xorijiy investitsiya jarayonlarini rivojlantirish - bularning barchasi faol hamkorlik qilish va xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun yangi istiqbollarni ochib berdi. Iqtisodiy hayotning baynalmilallashuv jarayoni savdo, transport va boshqalarda moddiy huquqiy normalarning unifikatsiyalanishini tezlashtirdi.

Bilamizki davlat sudlari O'zbekiston Respublikasi hududida fuqarolar o'rtasida yuzaga kelgan nizolarni hal etadi. Chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatlardagi nizolarni hal etish uchun esa arbitraj sudlari faoliyat yuritadi.

Arbitraj bu - nizolarni muqobil hal qilishning bir turi bo'lib, bu yuzaga keladigan muammolarni suddan tashqarida hal qilishdir. Arbitrajda nizolar bitta yoki bir necha shaxslar (arbitratorlar, arbiterlar yoki arbitraj tribunali) orqali hal qilinadi va ushbu shaxslar tomonidan arbitration award ya'ni arbitraj hal qiluv qarori qabul qilinadi. Arbitraj hal qiluv qarori nizolashayotgan tomonlar uchun bajarilishi majburiydir va sudlar tomonidan uning ijrosi amalga oshiriladi. Xalqaro arbitraj asosan, trans chegaraviy iqtisodiy bitimlardan kelib chiqadigan nizolarni muqobil hal qilishda qo'llaniladi. Arbitrajning odatdagi sud jarayonlaridan farqli tomoni shundaki, unda qabul qilingan hal qiluv qarorlari dunyoning ko'plab mamlakatlari tomonidan tan olinadi va ijroga qaratiladi. Shuningdek, arbitrajda nizolarni hal qilishning neytral usullari, qulay protsessual jihatlar va maxfiylik tomonlaridan biri hisoblanadi.

Sud organi hokimiyatning alohida mustaqil tarmog'i bo'lib uning qabul qilgan hujjatlari barcha davlat organlari, korxonalar, muassasa, tashkilotlar, jismoniy va yuridik shaxslar uchun majburiy hisoblanadi. Davlat sudlarining qabul qilgan hujjatlarining majburiylikini tan olish va ijroga qaratish borasida hech qanday muammo va tushunmovchiliklar bo'lishi mumkin emas. Davlat sudlarining hujjatlari milliy qonunchiligimizda belgilangan tartibda majburiy ijro etiladi.

Chet el elementi bilan murakkablashgan xususiy munosabatlardan kelib chiqqan nizolar arbitrajda hal etilganda arbitraj sudi chiqqan qaror bizning davlatimizda tan olinadimi yoki yuq? Arbitraj sud qarorlari davlatimizda tan olinsa qanday tartibda ijro etiladi? Bizning ko`rib chiqadigan asosiy masalalarimiz shulardan iborat.

Chet el sud qarorini tan olish davlatni, fuqarolari va boshqa huquqlarni ta'minlashda huddi o'z davlati sud qarorini ijrosini ta'minlagandek, ta'minlash majburiyatini olganligini tasdiqlaydi. Ingliz qonunchiligida, chet el sud qarorlarini tan olish va ularni ijroga qaratish tushunchalari o'rtasida yaqqol ko'zga tashlanadigan farq mavjud.

Chet el sud qarorlarini tan olish – da'voni sud jarayoni ishtirokchilalarining birini foydasiga hal qilingan deb hisoblashni anglatadi. Ushbu jarayon, chet el vakolati va muammoni hal qilish huquqi olami as res judicata sifatida ma'lumdir.

Ijroga qaratish esa, aksincha sud qarorini ijroga qaratishni anglatadi.

Chet el sud qarorining tan olinishi quyidagi afzalliklarga egadir:

- chet el sud qarorining tan olinishi har ikki tomon uchun ikkinchi marta ushbu holat yuzasidan sud muhokamasiga ketadigan vaqt va mablag'ni tejaydi; sudlarga yuklamalarni kamaytiradi;
- odil sudlovni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan sud qarorlarini qabul qilinishining oldini oladi.

Arbitraj sud qarorlarini tan olish va ijroga qaratish toifasidagi ishlar sudlarimiz tomonidan Nyu-York shahrida 1958 yil 10 iyunda imzolangan "Chet davlatlar hakamlik qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to'g'risida"gi Konvensiya, Kiyev shahrida 1992 yil 20 martda imzolangan "Xo'jalik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq nizolarni hal etish tartibi to'g'risida"gi Bitim, Gaaga shahrida 1954 yil 1 martda imzolangan "Fuqarolik protsessi masalalariga doir Konvensiya", O'zbekiston Respublikasining huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi xalqaro shartnomalari, O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi va boshqa qonun hujjatlari asosida hal etilmoqda.

Iqtisodiy protsessual kodeksining tegishli moddasiga ko`ra chet davlat sudlarining va arbitrajlarining iqtisodiyot sohasida yuzaga keladigan nizolar hamda boshqa ishlar bo'yicha qabul qilingan hal qiluv qarorlari, agar bunday qarorlarni tan olish va ijroga qaratish O'zbekiston Respublikasining tegishli xalqaro shartnomalari hamda qonunchiligida nazarda tutilgan bo'lsa, ular O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudlari tomonidan tan olinadi va ijroga qaratiladi.

Arbitrajning hal qiluv qarori, u qaysi mamlakatda qabul qilinganidan qat'i nazar, majburiy deb tan olinadi va sudga yozma ariza berilgan taqdirda arbitrajlarining hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish tartibini belgilovchi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi qoidalari hisobga olingan holda ijro etiladi.

Arbitrajning hal qiluv qaroriga asoslanayotgan yoki uni ijroga qaratish to'g'risida iltimos qilayotgan taraf arbitraj hal qiluv qarorining tegishli tarzda tasdiqlangan asl nusxasini yoki tegishli tarzda tasdiqlangan ko'chirma nusxasini taqdim etishi kerak.

Agar arbitrajning hal qiluv qarori yoki kelishuvi O'zbekiston Respublikasining davlat tilida yozilmagan bo'lsa, sudning talabiga ko'ra taraf bu hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining davlat tilidagi tegishli tarzda tasdiqlangan tarjimasini taqdim etishi kerak.

Arbitraj sud qarorlarini tan olish ijroga qaratish bo'yicha sudga kimlar murojaat qilishi mumkin? qanday tartibda va qaysi hujjatlarni ilova qilgan holda murojaat qilish kerak degan savollarga birma bir javob beramiz.

Kiyev Bitimining 8-moddasiga asosan hal qiluv qarori manfaatdor tarafning iltimosnomasiga asosan ijroga qaratiladi deb belgilangan. Xuddi shu norma bizning qonunchiligimizda ham o'z aksini topgan. Chet davlat sudining va arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish hamda ijroga qaratish masalalari iqtisodiy sud tomonidan nizo bo'yicha hal qiluv qarori o'z foydasiga chiqarilgan tarafning arizasi bo'yicha hal etiladi. Bundan ko'rinib turibdiki arbitraj sudi qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha sudlarga faqatgina arbitraj sudining hal qiluv qarori o'z foydasiga chiqqan taraf murojaat qilishi mumkin. Masalan O'zbekistonning "X" masuliyati cheklangan jamiyati va Rossiyaning "Y" masuliyati cheklangan jamiyati o'rtasida maxsulot yetkazib berish shartnomasi tuzilgan bo'lib, o'sha shartnoma bo'yicha kelib chiqqan nizo arbitraj sudi tomonidan Rossiya davlatida joylashgan "Y" MCHJ foydasiga hal qiluv qarori chiqarganda, "Y" MCHJ iqtisodiy sudga arbitraj sudi qarorini tan olish va ijroga qaratishni so'rab murojaat qilishi mumkin. Endigi hal qilinishi kerak bo'lgan masala "Y" MCHJ qayerda joylashgan iqtisodiy sudga murojaat etadi? Masalan "X" MCHJ Samarqand shahrida joylashgan bo'lsa.

Chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi ariza arizachi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga qarzdorning joylashgan eri yoki yashash joyi bo'yicha yoxud, agar qarzdorning joylashgan eri yoki yashash joyi noma'lum bo'lsa, qarzdor davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy bo'yicha beriladi.

Bundan ko'rinib turibdiki Arbitraj sudi qarori manfaatida chiqarilgan taraf javobgar joylashgan joydagi o'rta bo'g'in sudlariga murojaat qiladi. Ya'ni Samarqand viloyat iqtisodiy sudiga murojaat qiladi.

Arbitraj sud qarorlarini tan olish va ijroga qaratish bo'yicha sudga kiritadigan iltimosnomada qanday hujjatlar ilova qilinishi 1958-yil 10-iyundagi Nyu-York konvensiyasida, kiyev bitimida va iqtisodiy protsessual kodeksda ham belgilab berilgan .

Kiyev Bitimining 8-moddasiga ko'ra hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish manfaatdor tarafning iltimosnomasiga asosan amalga oshiriladi. Iltimosnomaga quyidagilar ilova qilinadi.

1. tan olish va ijroga qaratish so'ralgan qarorning tegishlicha tasdiqlangan nusxasi;
2. agar qaror matni mazmunidan anglashilmasa, uning qonuniy kuchga kirganligini ko'rsatuvchi rasmiy hujjat;
3. ish ko'rilishi ikkinchi tarafga bildirilganligi haqida rasmiy xabarnoma;
4. ijro varaqasi.

Yuroqida ko'rsatilgan hujjatlar manfaatdor tarafning iltimosmonasida ilova qilinishi shart. Bu hujjatlarning ilova qilinmasligi iltimosnomani sudlar tomonidan qaytarilishiga asos bo'ladi.

Kiyev bitimining 8-moddasida iltimosnomaga belgilangan hujjatlarning ilova qilinmasligi iltimosnomani qaytarishga asos bo'lishi ko'rsatib qo'yilgan.

Sud tomonidan chet el arbitrajining qarorini tan olish va ijroga qaratish bo'yicha belgilangan tartibda ajrim chiqariladi. Maanfaatdor shaxsning iltimosnomasi sudya tomonidan

sud muhokasida ko`rib chiqilib qanoatlantirish yoki qanoatlantirishni rad etish to`g`risida qaror chiqariladi.

“Xalqaro tijorat arbitraji to`g`risida”gi qonunda manfaatdor tarafning iltimosnomasini tan olish va ijroga qaratishni rad etish asoslari ko`rsatib o`tilgan. Qonunda ko`rsatilmagan boshqa asoslarni vaj qilib ko`rsatib chet el arbitraji hujjatini tan olish va ijroga qaratishni rad etilish mumkin emas.

Arbitrajning hal qiluv qarori qaysi mamlakatda qabul qilinganidan qat'i nazar, uni tan olish yoki ijroga qaratish faqat quyidagi hollarda rad etilishi mumkin:

1) hal qiluv qarori o`ziga qarshi qo`llanilayotgan tarafning iltimosi bo`yicha, agar ushbu taraf tan olish yoki ijroga qaratish so`ralayotgan sudga quyidagi hollarni isbotlovchi dalillarni taqdim etsa:

Arbitraj kelishuvining taraflaridan biri qaysidir darajada muomalaga layoqatsiz bo`lganligini; yoki ushbu kelishuvning taraflar uni qaysi qonunchilikka bo`ysundirgan bo`lsa, o`sha qonunchilik bo`yicha, bunday qonunchilik mavjud bo`lmaganda esa hal qiluv qarori qabul qilingan mamlakatning qonunchiligi bo`yicha haqiqiy emasligi dalilini; yoki

hal qiluv qarori o`ziga qarshi qabul qilingan taraf arbitr tayinlanganligi yoki arbitraj muhokamasi to`g`risida tegishli tarzda xabardor qilinmaganligi yoxud boshqa sabablarga ko`ra o`z vajlarini bera olmaganligi dalilini; yoki

arbitrajning hal qiluv qarori arbitraj kelishuvida hal qilinishi nazarda tutilmagan yoki uning shartlariga to`g`ri kelmaydigan nizo bo`yicha qabul qilinganligi dalilini yoxud unda arbitraj kelishuvi doirasidan chetga chiquvchi masalalar bo`yicha qaror mavjudligi dalilini. Bunda agar arbitrajda ko`rilishi lozim bo`lgan masalalar bo`yicha qarorni arbitrajga tegishli bo`lmagan masalalardan ajratib olish mumkin bo`lsa, u holda arbitraj hal qiluv qarorining arbitraj ko`rib chiqishi lozim bo`lgan masalalarga doir qarori mavjud bo`lgan qismini tan olish va ijroga qaratish mumkin; yoki

arbitraj sudining tarkibi yoki arbitraj tartib-taomili taraflarning kelishuviga muvofiq emasligi dalilini yoki bunday bitim mavjud bo`lmaganda, arbitraj muhokamasi bo`lib o`tgan mamlakatning qonunchiligiga muvofiq emasligi dalilini; yoki

arbitrajning hal qiluv qarori hali taraflar uchun majburiy bo`lmaganligi dalilini yoki qaror qaysi mamlakatda chiqarilgan bo`lsa yoki qaysi mamlakatning qonunchiligiga muvofiq qaror qabul qilingan bo`lsa, o`sha mamlakat sudi tomonidan bekor qilinganligi yoki ijrosi to`xtatib turilganligi dalilini; yoki

2) agar sud:

nizo predmeti O`zbekiston Respublikasining qonunchiligiga ko`ra arbitraj muhokamasiga tegishli emasligini; yoki

arbitrajning hal qiluv qarorini tan olish va ijro etish O`zbekiston Respublikasining ommaviy tartibiga zid ekanligini aniqlasa.

Sudga arbitrajning hal qiluv qarorini bekor qilish yoki uning ijrosini to`xtatib turish to`g`risida ariza berilgan bo`lsa, qarorni tan olish yoki ijroga qaratish so`ralayotgan sud, agar buni lozim deb hisoblasa, o`z qarorini chiqarishni kechiktirishi va arbitrajning hal qiluv qarorini tan olishni yoxud ijroga qaratishni ariza berayotgan tarafning iltimosnomasi bo`yicha boshqa tarafning zimmasiga tegishli ta`minotni taqdim etish majburiyatini yuklatishi mumkin.

Agar iltimosnoma qanoatlanirilsa arbitraj sudining qarorini ijro etish uchun ijro hujjati bo`lib davlat sudining ijro varaqasi hisoblanadi.

“Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonun 7-moddasining birinchi qismiga ko‘ra, chet el sudlari va arbitrajlar qarorlari asosida O‘zbekiston Respublikasi sudlari beradigan ijro varaqalari ijro hujjatlari hisoblanadi.

Chet davlat sudining va arbitrajining hal qiluv qarorini ijroga qaratish chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risida ajrim chiqargan sud tomonidan beriladigan ijro varaqasi asosida O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda amalga oshirilad. Davlat sudlari tomonidan chet el Arbitraj sudlari hujjatini tan olingandan so‘ng uning ijro etilishi davlat sudlarining qarorlari qanday tartibda ijro etilsa shu tartibda ijro etiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonun
3. Iqtisodiy protsessual kodeksi
4. “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni
5. Kiyev shahrida 1992 yil 20 martda imzolangan “Xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq nizolarni hal etish tartibi to‘g‘risida”gi Bitim
6. *Passport Special Opportunities Master Fund v. ARY Communications*, 49 Misc. 3d 1216 (Sup. Ct. Nassau County 2015).
7. Отахонов Ф.Х. Медиация – плюсы и минусы посредничества // Материалы Международных научно-практических конференций на тему «Международный коммерческий арбитраж в контексте судебно-правовой реформы» 28 октября 2009 г. Ташкент: Chashma Print, 2010. – С.253.
8. Юсупова М. Чет эл фуқаролик процессида чиқарилган суд қарорларини тан олиш ва ижро этишининг ўзига хос хусусиятлари. /Юридик фанлар ахборотномаси. 2017 йил. –Б.67-68.
9. *Hilton v Guyot* 159 U.S. 113; see [*Adams v Cape Industries plc* [1990] Ch 433].
10. O' Sullivan, Arthur Sheffrin, Steven M. (2003). *Economics: Principles in Action*. Upper Saddle River, New Jersey: Pearson Prentice Hall. p. 324. ISBN 0-13-063085-3